

KONTRAFAKT MAHSULOTLAR: YASHIRIN IQTISODIYOTNING KO'RINMAS TAHDIDI

Abdusatarov Jaloliddin Sharafutdin o'g'li

Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi

Intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sho'bası bosh maslahatchisi

Dunyoning barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qatori mamlakatimizning iqtisodiyotiga va aholining salomatligiga jiddiy xavf solayotgan asosiy omillardan biri bu mamlakatga noqonuniy yo'llar bilan sifatsiz tovar-moddiy boyliklarini olib kirilishidir. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunining 27-moddasida "Tovar belgisidan yoki adashtirib yuborish darajasida u bilan o'xshash bo'lgan belgidan tovarlarda, tovarlarning etiketkalarida, o'rovlarida qonunga zid ravishda foydalanilganda ular kontrafakt hisoblanadi.", - deb belgilangan.

Kontrafakt – intellektual mulk huquqini buzish degan ma'noni anglatadi. Shundan kelib chiqib "kontrafakt" so'zi – intellektual mulk huquqlarni buzish ma'nosida ishlatiladi. Bugungi kunda "kontrafakt" so'zi o'rnida tez-tez "piratskiy" (qaroqchilik mahsuloti) iborasi ishlatilib, bu so'z ham ingliz tilidan "piracy" — intellektual mulk huquqini buzish ma'nosida qo'llaniladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga eng asosiy tahdidlardan biri, xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan kontrafakt tovarlarni respublikaga kirib kelishi va ichki hududlarda xufiyona tayyorlanishi bo'lib, ushbu salbiy holatlarga qarshi kurashish barchamizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois kontrafakt mahsulotlarning mamlakat hududiga kirib kelishini oldini olish va ularning noqonuniy muomalasiga chek qo'yish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday mahsulotlar nafaqat iqtisodiyotga zarar yetkazadi, balki iste'molchilar huquqlarining buzilishiga ham sabab bo'ladi.

SJIF: 5.051

Sifatsiz va noqonuniy ishlab chiqarilgan tovarlar bozor muvozanatini buzib, halol tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada qonuniy ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshlikni yo'qotadi, davlat byudjetiga tushishi lozim bo'lgan soliq va bojxona tushumlari kamayadi.

Ayniqsa, oziq-ovqat, dori-darmon va maishiy texnika kabi mahsulotlarning kontrafakt ko'rinishda tarqalishi aholining sog'lig'i va xavfsizligiga jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin. Bunday mahsulotlar ko'pincha sanitariya va texnik standartlarga javob bermasligi, ularning tarkibi va sifati nazoratdan o'tmasligi kabi xavflar iste'molchilar sog'lig'iga zarar yetishi, hatto ayrim holatlarda jiddiy salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.

Kontrafakt mahsulotlar muammosi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va huquqiy jihatdan ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki bunday mahsulotlarning noqonuniy ishlab chiqarilishi va tarqalishi "yashirin iqtisodiyot"ning kengayishiga sabab bo'ladi. Yashirin iqtisodiyot esa davlat nazoratidan tashqarida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat bo'lib, unda ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish jarayonlari rasmiy hisobga olinmaydi. Natijada davlat byudjeti katta miqdordagi soliq tushumlaridan mahrum bo'ladi. Kontrafakt mahsulotlar aynan mana shu yashirin iqtisodiyotning eng xavfli ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Ular ko'pincha taniqli brendlar nomidan noqonuniy foydalanish orqali ishlab chiqariladi yoki soxta yorliqlar bilan sotuvga chiqariladi. Buning natijasida iste'molchilar aldangan holda sifatsiz mahsulot xarid qiladi, qonuniy ishlab chiqaruvchilar esa o'z mehnatining natijasidan yetarli darajada foyda ko'ra olmaydi. Bu esa bozor iqtisodiyotida sog'lom raqobat muhitining buzilishiga olib keladi.

Bundan tashqari, kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘pincha yashirin sexlar va noqonuniy ishlab chiqarish joylarida amalga oshirilishini inobatga olib shuni aytish mumkinki, bunday joylarda mehnat xavfsizligi qoidalari, sanitariya talablari yoki texnik standartlar ham hisobga olinmasligi mumkin. Natijada nafaqat mahsulot sifati past bo‘ladi, balki ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan ishchilarning huquqlari ham poymol etilishi mumkin. Bu holat esa jamiyatda ijtimoiy adolatsizlikning kuchayishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish faqatgina nazorat choralari kuchaytirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Eng avvalo, jamiyatda huquqiy ong va iste’mol madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Fuqarolar original va sertifikatlangan mahsulotlarni tanlashga odatlanishi, tadbirkorlar esa intellektual mulk huquqlariga hurmat bilan qarashi zarur. Bu esa yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, kontrafakt mahsulotlar – bu oddiygina sifatsiz tovar emas, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi yashirin iqtisodiy jarayonlarning ko‘rinmas, ammo juda xavfli omilidir. Shu sababli ushbu muammoga qarshi kurashishda davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari va jamiyatning barcha a‘zolari o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi, bunda iste’molchining huquqiy ongi oshirilishini ta’minlash zarur bo‘ladi. Shundagina iqtisodiyotning shaffofligi ta’minlanib, qonuniy ishlab chiqarish va halol raqobat muhiti mustahkamlanadi.